

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI

80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi

5 JILDLI

TAHRIR HAY‘ATI:

**A.MADVALIYEV, N.MAHKAMOV, N.MAHMUDOV (rahbar),
D.XUDOYBERGANOVA, O.ODILOV**

Abduvahob Madvaliyev tahriri ostida

**“O‘zbekiston nashriyoti”
Toshkent – 2021**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI

BIRINCHI JILD

A – F

To‘ldirilgan va tuzatilgan 3-nashri

“O‘zbekiston nashriyoti”

O'ZBEK ALIFBOSI

A

B

D

E

F

G

H

I

J

K

L

M

N

O

P

Q

R

S

T

U

V

X

Y

Z

O'

G'

Sh

Gh

ng

,

A

A yukl. (turli darajadagi talaffuz bilan) Taajjubli, e'tirozli va sh.k. mazmun-dagi so'roqni bildiradi: Nima? Nima deding? Nima dedingiz? *O'n to'rt so'm berasiz.* – *A, o'n to'rt so'm?* Oybek, Tanlangan asarlar. *Rafiq, nayni kim chaldi?* – *Yo'lchi akam.* – *A! Rostdanmi? Aldama!* Oybek, Tanlangan asarlar. *Qanaqa o'yin?* – *Qimor,* – *sekin javob berdi Qambar.* – *A, mehmonlari qimorbozga sira o'xshamaydi-ku.* Oybek, Tanlangan asarlar.

A, AN- [yun. a-, an-] So'zlar oldidan qo'shilib, o'zi qo'shilgan so'z asosidan anglashilgan ma'noni inkor etish yoki qaysidir sifat, xususiyatning mavjud emasligini ifodalaydi: *avitaminoz, anormal, anonim.*

ABAD [a. ابد – doimiylik] *esk. kt. 1* So'ngi yo'q kelgusi zamon; *zid. azal.* *...tongda yotog'idan bosh ko'targan quyosh shahri azim uzra charaqlab, o'zining azal va abad qismatini belgilab qo'yilgan chiziq bo'ylab yo'lida davom eta-eta shom onlari yaqinlashgani sayin mag'rib tomonga og'a boshladi.* Xurshid Do'stmuhammad, Qichqiriq.

2 rvsh. Abadiy suratda, doimo. *Ikki narsa bir-biriga abad yo'ldoshdir, Biri tig'dor ayoz bo'lsa, biri quyoshdir.* Y. Mirzo.

To abad Abadiy suratda, hamisha, umrbod. *Ko'kragimda yashnar to abad Hayot taqib qo'ygan guldasta.* Uyg'un.

ABADIY Vaqt e'tibori bilan oxiri yo'q; mangu, doimiy. *Abadiy hayot. Abadiy xotira. — Shaharlarning nomi abadiy, Bu nomlarni qo'ygan el-ulus.* M. Shayxzoda. *Magar, u dunyo, boqiy dunyo, abadiy rohat-farog'at chin ersa, bu to'rt kunlik dorilfanoning azob-uqubatlari, alam-iztiroblari nechun? Bir lahza yonib-o'chgan sham abadiyat shamsi oldida ne degan gap axir? A.Yo'ldosh, Begona shaharning namozshomlari.*

ABADIYA: saodati abadiya *esk. kt.* Abadiy baxtlik, mangu baxt-saodat. *Bu bayroq mash'al bo'lib, saodati abadiya yo'lini yoritdi.* A. Qahhor, Sarob.

ABADIYAN *rvsh. kt. kam qo'll.* Abadiy suratda. *Sultonmurod u qizning abadiyan qo'ldan ketganligiga ishonadi.* Oybek, Navoiy.

ABADIYAT [a. ابدیت – mangulik, so‘ngsizlik] *kt. kam qo‘ll. Abadiylik, mangulik. Nur sochilgan, gul ochilgan bahor tunida Abadiyat qo‘shig‘iga solardim quloq. Uyg‘un. Shu erur mangulik ham abadiyat Unda qaror topur bizning jamiyat.* T. Nizom, Alisher.

ABADIYLASHMOQ Abadiy mavjudlikka ega bo‘lmoq; mangulik kasb etmoq. *Xotirasi abadiylashdi.*

ABADIYLASHTIRMOQ Abadiy unutilmaydigan, yo‘qolmaydigan qilmoq; avlodlarga mangu qoldirmoq. *Olimning nomini abadiylashtirmoq. Ulug‘larning nomlari abadiylashtirilib, ularning yodini olib yaxshi, xayrli ishlar qilinayotgani bizni quvontiradi.* E. Oxunova, Biz suv ichgan daryolar.

ABADIYLIK Mangulik, doimiylik. *Materiyaning abadiylik qonuni. — Keyin esa abadiylik haqidagi o‘ylarimga ham bus-butkul yakun yasadim: Ya‘nikim, men vaqtning maxluq ekanini tushunib yetdimmi, demak, abadiylik tushunchasini bir kuni tushunib yetaman. Gazetadan. Xullas, oqillar aytganidek, hayot barhayotlik uchun kurash ekan, u qanchalik qiyinchiliklar, taloto‘plar, nobopliklar, quvonch-u shodliklar ichida o‘tmasin, o‘zlikni anglash va uni ko‘plab insonlar uchun ibrat qilib qoldirish abadiylikka daxldor etarkan. X. Umurov, Yorug‘ va yoniq qalblar. Mudom Olloh nazarida bo‘l, Abadiylik – sen tanlagan yo‘l!* T. Nizom, Alisher.

ABADULABAD [a. ابدالاباد – abadlarning abadi] Abadiy suratda, butun hayot davomida, doimo. *Shu sababli ham ul hazratning [Imom al-Buxoriyning] muborak nomi abadulabad insoniyat xotirasidan o‘chmagay. Gazetadan.*

ABAJUR [fr. abat-jour – Yorug‘likni qaytaruvchi] Kerakli yorug‘likni bir joyga to‘plab tushirish yoki ko‘zni yorug‘lik nuridan pana qilish uchun lampa ustiga o‘rnatiladigan, shisha, mato, metall va sh.k. dan yasalgan qalpoq. *Chinni abajur. Shoyi abajur. Shiftda abajur osig‘liq. — Abajurdan taralgan ko‘kish nur uning yuzida tovlanardi. S. Zunnunova, Yangi direktor. Latofat abajurni divanga yaqinroq surdi, stoldan qog‘oz-qalam olib domlaga yaqinroq o‘tirdi. O.Yoqubov,*

Diyonat. *Bitta qovunni abajurga o'xshatib qo'yib, po'chog'idan to'r yasab, sadaning shoxiga ilib qo'ydim.* P. Qodirov, Qadrim.

ABAJURLI Abajur o'rnatilgan. *Abajurli elektr chirog'i xonaga yog'du sohib, charaqlab turardi.* M. Xayrullayev, Ko'ngil. *Rigo iste'dodi sababli amaliyotga tatbiq etilayotgan (DE)light loyihasi doirasidagi birinchi mahsulotlar – chiroq shaklidagi bokal, abajurli stol yoritgichi yaqin kunlarda sotuvga chiqariladi.* Gazetadan. *Stol ustidagi ko'k abajurli chiroqdan Qunduzxonning yuziga havoyi bir nur tushib turardi.* Said Ahmad, Ayajon. *Uy g'ira-shira, stoldagi ko'k abajurli chiroq shu'lasida Latofat iyagini qo'llariga qo'yib, kitob o'qib o'tirardi.* O.Yoqubov, Diyonat. *Qodir o'z uyini ko'kintir bo'yoq bilan trafaret qildirib, shunga mos keladigan abajurga zoriqqanini va ko'p mashaqqatlar bilan arang topganini aytganida, u, xuddi "o'zingda bor narsani nega qidirasan" deganday taajjublandi.* A. Qahhor, Qanotsiz chittak. *Bitta qovunni abajurga o'xshatib so'yib, po'chog'idan to'r yasab, sadaning shoxiga ilib qo'ydim.* P. Qodirov, Qadrim.

ABAS [a. ابث – behuda, foydasiz] *esk. kt.* Foydasiz, behuda, natijasiz, bekor. *Bevafodir bu jahon, sudu ziyon barcha abas.* Nodira. *Bas, endi u she'r yozishni yig'ishtiradi.* *Barchasi abas ekan.* S. Siyoyev, Avaz. *Komil bo'la olsa agar insonlar, Nizolar bartaraf, ig'volar abas.* A. Oripov. Everest va ummon. *Afsus, sog'inchning ham bordir adog'i, Keyin unutilish, bari abasdir.* A. Oripov, Yangi she'rlar.

ABBAT [lot. abbas, abbatis] **1** Erkaklar katolik monastirining boshlig'i. *Monaxlar monastirga kirar ekan, oila qurmaslikka, qashshoq bo'lib yashashga va o'z boshlig'i abbatga (ya'ni – "ota"ga) hech so'zsiz bo'ysunishga va'da berar edilar.* M.Madaminov, Jahon tarixi.

2 Fransiyada: katoliklar ruhoniysi. *Lordlar palatasida yepiskoplar, abbatlar va qirol maxsus taklif qilgan zadagon feodallar majlis qurardi.* M.Madaminov, Jahon tarixi.

ABBOSIYLAR *tar.* Bag‘dodda 132–656–hijriy yoki 750–1258–milodiy yillarda hukmronlik qilgan arab xalifalari sulolasi va uning vakillari. *Yuqoridagi xalq harakatlari natijasida Damashqda 990-yil hukmronlik qilgan Ummaviylar sulolasi ag‘darib tashlandi va hokimiyatga payg‘ambarimizning Makkadagi hoshimiylar urug‘idan bo‘lgan amakisi al-Abbosdan boshlanadigan Abbosiylar sulolasi keldi.* O.Masharipov, Xorazmnoma.

ABBREVIATURA [*ital.* abbreviatura < *lot.* abbrevio – qisqartiraman] *tlsh.* *ayn.* **qisqartma so‘zlar.** *Dramto* ‘garak (*drama to ‘garagi*). **DAN** (*Davlat avtomobil nazorati*), **XDP** (*Xalq demokratik partiyasi*) kabi.

ABDOL [*a.* ابدال – avliyo(lar)] *esk. kt.* Valiylikning belgili bir darajasiga erishgan guruh; avliyolar, xudoga yaqinlar.

ABDOLVASH *esk. kt.* Avliyo tabiatli, qalandarsifat. *Muslimiy... abdolvash yigit erdi.* A. Navoiy, Majolisun-nafois.

ABERRATION Aberratsiyaga oid. *Aberration hodisa.*

ABERRATSIYA [*lot.* aberratio – o‘zgarish, uzoqlashish, chetlanish] **1 biol.** Ma‘lum bir navga mansub hayvonlar organizmida (uning tuzilishi yoki funksiyasida) paydo bo‘ladigan o‘zgalik, o‘zgarish, normadan chetlashish. *Suyak ko‘migi metafaza plastinkalarida xromosoma aberratsiyasi chastotalarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, zellek yuqorida ko‘rsatilgan konsentratsiyada tajriba hayvonlarida xromosomalarda o‘zgarishga olib kelmaydi.* Biologiya fanining dolzarb muammolari

2 fiz. Yorug‘lik nurlarining linza orqali o‘tishida linza fokusidan og‘ishi, chetga chiqish hodisasi.

Sferik aberratsiya Nurlarning fokusdan og‘ishi natijasida tasvir chetlarining xiralashib, chaplashib tushishi. **Xromatik aberratsiya** Quyosh va sh.k. lar nurining linzadan o‘tib, tarkibiy ranglarga ajralishi, tovlanishi.

3 astr. Yerning o‘z o‘qi va Quyosh atrofida aylanishi natijasida Yer bilan birga harakat qilayotgan kuzatuvchiga yulduzlarning asl o‘rnidan bir oz siljiganga o‘xshab ko‘rinishi. *Aberratsiya aslida yulduzdan kelayotgan yorug‘lik harakati*

bilan Yerning o'z orbitasidagi harakatining qo'shilishidan kelib chiqadigan natijadir. "Umumiy astronomiya". Masalan, 18-asrning boshida Bradley parallaks o'rniga yorug'lik aberatsiyasi hodisasini, V.Gershel' esa o'sha asrning oxirida qo'shaloq yulduzlar sistemasidagi orbital harakatni kashf qildi. "Umumiy astronomiya".

ABGOR [f. افگار – yaralangan, majruh; toliqqan] Nochor holatli, ahvoli xarob. *Umarqul abgor bir ahvolda o'rnidan turib, xurjunini ochdi. H. G'ulom, Mash'al. Juda tirikchiliging o'tmay, abgor bo'lib qoldingmi? H. Nazir, Ko'kterak shabadasi. Murojaatda fuqarolar o'zlarining yashash sharoiti og'irligi, istiqomat qilayotgan xonadonlari abgor holatdaligini bayon etishgan. Gazetadan.*

ABGORLIK Abgor holat, nochor ahvol. *Boylar va ruhoniylar quvvatlab kelgan bu xurofiy urf-odatlar ko'p kosib va dehqonlarning... abgorlik bilan hayot kechirishlariga sabab bo'lar edi. M. Muhammadjonov, Turmush urinishlari. Hayotimdagi ayovsiz zirqiratgan yolg'izlik silsilalari, abgorlik tahlikalari davri tugul, eng baxtli kunlarda ham o'sha tunni, o'sha xiyobonni, uning ochiq yelkalarini, suyub erkalashlarini unutilmadim. M. Ismoil, Oppoq gulday oydin xotira.*

ABIRA kt. ayn. **evara.** *Bugungi kunda Masturabibining atrofida 32 nevarasi va 47 abirasi parvona. Gazetadan.*

ABITURIYENT [lot. abituriens, abiturientis – ketmoqchi bo'lgan kishi] Oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurtiga kirish uchun da'vogar. *Imtihonlarni boshlashdan avval qur'a tashlanadi. Biletlarni olish uchun abituriyentlardan to'rt kishi chaqiriladi. Gazetadan. Abituriyentlar imtihonsiz qabul qilinarmish. T. Jo'rayev, "Asr tuqqan odamlar". Abituriyentlar javoblar varaqasining to'g'ri to'ldirilishi uchun shaxsan o'zi javobgar hisoblanadi. Gazetadan. Undoq bo'lsa, shu abituriyentni qo'shimcha qilib olaylik. Tashlab ketadigani bor, haydaladigani bor. O'qiydigani ham kirsin! A. A'zam, Asqartog' tomonlarda.*

ABJAD [a. ا ب ج د] **1** Qadimgi arab alifbosi tarkibidagi harflardan tuzilgan va har qaysi harfning birdan minggacha son qiymatini hamda qadimiy arab alifbosi

tartibini esda saqlash uchun o‘ylab topilgan sakkizta so‘zdan (*abjad, havvaz, hutti, kalaman, sa’fas, qarashat, saxaz, zazag’*) birinchisining va shu sakkiz so‘z majmuyining nomi. *O‘zbek adabiyotida Abjaddan maxfiy yozuvlar yozishda ham foydalanilgan. “O‘zME”.*

Abjad hisobi yoki hisobi abjad Arab harflarining abjad tizimidagi son qiymatiga muvofiq biror so‘z yoki iboradan ma’lum bir son, sanoq, tarix chiqarish.

2 Eski usuldagi maktablarda o‘qitilgan boshlang‘ich ta’lim alifbosi. *Hamma narsa bolalar uchun yangi, qiziq edi, chunki ular abjaddan, haftiyakdan bo‘lak kitob ko‘rmagan edilar. M. Ismoiliiy, Farg‘ona t.o. Shu kun ahli irshod, ahli donolar, “Abjad” hisobini bitdilar ravon. T. Nizom, Alisher.*

ABJADXON Eski usuldagi maktabda endigina ta’lim ola boshlagan, abjad o‘quvchi bola. *q. abjad 2. Shunga muvofiq, darsxonaning to‘rida Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Hofiz Sheroziy, So‘fi Olloyor asarlari, “Chor kitob” kabilarni o‘quvchilar, o‘rtasida Qur‘on, “Haftiyak” (forscha — “Qur‘oni Karimning yettidan biri”)ni o‘quvchilar va poygakda “abjadxonlar” (bo‘g‘inlab o‘quvchi va “Abjad”ga ko‘ra, hisob hamda ko‘paytirishni o‘rganuvchilar), “taxtaxonlar” (arab alifbosi harflari yozilgan maxsus taxtacha — “lavh”dagi harflarni yodlab o‘rganayotgan o‘quvchilar) o‘tirganlar. “O‘zME”.*

ABJADXONLIK Abjad o‘qish, abjad o‘rganish. *Buni menga otam abjadxonlik vaqtimda o‘rgatgan edi. S. Ayniy, Esdaliklar. Keyingi o‘quv bosqichi “abjadxonlik” deb atalib, bunda o‘quvchilar bo‘g‘inlarni qo‘shishga, “Abjad”ga ko‘ra, hisob va ko‘paytirishga o‘rgatilgan. “O‘zME”.*

ABJAG: **abjaq bo‘lmoq yoki abjag‘i chiqmoq** *kam. qo‘ll. 1) pachoqlanib, ezilib, puturdan ketmoq. Abjag‘i chiqqan mashina. Avariya uchragan mashinalar abjag‘i chiqib yotibdi. So‘zlashuvdan; 2) kaltak yoki boshqa narsa zarbidan ezilib holdan ketmoq, abjaq holga kelmoq. Abjag‘ini chiqarmoq yoki abjaq qilmoq 1) qattiq jarohatlamoq. Fashistni ur, abjag‘ini chiqar... Oybek, Quyosh qoraymas; 2) urilib, ezilib, yaroqsiz holga kelmoq (keltirilmoq).*

ABJAQLAMOQ *kam qo'll.* Abjaq qilmoq, abjag'ini chiqarmoq, dabdala qilmoq.

ABJIR Oyoq-qo'li tez, tez harakat qila oladigan; epchil, chaqqon. *Abjir bola. — Yo'lchiboy... barvastaligiga qaramasdan abjirgina yigit.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Otamdan yoshi katta bo'lsa ham, lekin o'zi abjir, g'o'labir kishi edi.* M. Ismoilii, Bizning roman.

ABJIRLIK Epchil harakat; chaqqonlik. *Ot munkib ketganda, egarning ustidan dumbaloq oshib tushgan paranjisiz qiz o'ynoqi kaptarday abjirlik bilan o'zini o'ng'arib oldi-da, juvonga yordam bergani shoshildi.* A. Qahhor, Maston.

ABJO'SH *shv. 1 ayn. objo'sh.*

2 ayn. abjo'shi. *Oyog'in tosh urmasin deb, Abjo'shdan nag'al qoqilgan.* E. Jumanbulbul, Xushkeldi.

ABJO'SHI *shv. sft.* Suv berib ishlangan (temir, po'lat kabilar haqida). *...o'ynatib shu tulpor otti, abjo'shi po'lat nag'allar tog'ning toshin yong'oq etdi.* Islom shoir, Zulfizar bilan Avazxon.

ABLAH [*a. ابله* – tentak, beaql, nodon] **1** Xulq-atvori tuban, yaramas axloqli. *Ablah odam. — Mendaqa befahm-befarosat ablahlarni ayash – gunoh! Feleton qiling, feleton!* O. Yoqubov, Bir feleton qissasi.

2 Shu belgi-xususiyatga asoslangan haqoratni bildiradi. *Iye, ablah, boshqa gap qurib qoldimi?* Oybek, Tanlangan asarlar.

ABLAHLIK Yaramas xatti-harakat, ablahga xos qiliq. *Bosh vazir janoblari, bu ko'rnamak bilan qadrdon do'st edik, bunday ablahlik qilishiga sira ko'zim etmas edi.* J. Sharipov, Xorazm. [*Go'ro'g'li*] – *Go'rga kirgach, hammasi unutiladimi, tuproq hamma ablahliklarni ko'mib tashlaydimi?* T.Malik, Shaytanat.

ABLAHONA Ablahga xos, ablahniki kabi. *Lekin Gulandom bilan so'zlashgan sari u ba'zi qo'pol harakatlardan, ablahona qiliqlardan o'zini tiyishga tirisha boshladi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Azizbekning bu ablahona qarorig'a qarshi qizishdi.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

ABLAQ [*a. ابلق* – ola-bula, oq-qora] Chipor, chavkar (ot tusi haqida).

ABO [*a.* عباء – choponga o‘xshash jun kiyim] *tar.* Avrasi jun yoki boshqa matodan tikilgan uzun, keng, lekin yengi kalta erkaklar ust kiyimi. *Shayboniyxon boshiga qizil bo‘rk ustidan salla o‘ragan, ko‘k movutdan abo kiygan.* P. Qodirov, Yulduzli tunlar. *Uning chakmonidan o‘tgan yomg‘ir kalta yenglik abosini nam qilgan edi.* P. Qodirov, Yulduzli tunlar.

ABOLITSIYA [*lot.* abolitio – bekor qilish] Qonun yoki qarorning bekor qilinishi.

ABONEMENT [*fr.* abonnement] Biror narsadan (mas., telefon, teatrdagi o‘rin, avtotransport va sh.k. dan) ma‘lum muddatga foydalanish huquqi va shu huquqni tasdiqlovchi hujjat. *Kutubxonalararo abonement. Abonement haqi. Abonement olmoq.*

ABONENT [*fr.* abonner – yozilmoq, obuna bo‘lmoq] Abonementga ega bo‘lgan shaxs yoki tashkilot. *Eshitib turish va ovoz yozish bayonnomasida abonent raqami, eshitib turish va ovoz yozish vaqti va joyi, foydalanilgan texnikaviy vositalar turi va modeli, bu ishlarni amalga oshirgan shaxslarga oid ma‘lumotlar hamda ish uchun ahamiyati bo‘lishi mumkin deb hisoblangan boshqa ma‘lumotlar aks ettiriladi.* Jinoyat-protsessual kodeksidan.

ABORIGEN Aborigenlarga mansub.

ABORIGENLAR [*lot.* aborigine – avvaldan, boshidan] **1** Mamlakat yoki biror joyda qadimdan yashab kelayotgan tubjoy aholi; tubjoyliklar. *Avstraliya aborigenlari. Hindistonda aborigenlar tomonidan o‘ldirilganligi taxmin qilinayotgan amerikalikni qidirish ishlari to‘xtatildi.* UZA.

2 O‘simlik yoki hayvonlarning qadimdan bir joyga mansub (mahalliy, jaydari) turlari, zotlari. *Aborigen g‘o‘za.*

ABORT [*lot.* abortus – bola tashlash, muddatidan oldin tug‘ilish] Homilaning hayotga layoqatsiz davrida, ya‘ni dastlabki 28 hafta mobaynida tushishi yoki tushirilishi (oldirilishi). *Rezus manfiy ayollarda 1-homiladorlikni iloji borija saqlab qolish, abortlarning oldirini olish kerak.* Q.Djabborova, M.Ayupova, Akusherlik. **Sun‘iy abort** Ayolning istagiga ko‘ra yoki kasalligi sababli homilani

oldirish. **G‘ayriixtiyoriy (tabiiy) abort** Homilaning turli sabablarga ko‘ra (mas., kasallik tufayli) tushishi. *Agar sun‘iy abort qilinsa, homila tashlash, gemotransfuziya va boshqa hollarda ham og‘irlik darajasi ortib, antitanalar titri ortadi.* Q. Djabborova, M. Ayupova, Akusherlik.

ABORTIV 1 tib. Og‘riqni, kasallikni birdan to‘xtatadigan, qoldiradigan. *Abortiv davolash. Abortiv dori-darmonlar.*

2 biol. O‘smay, rivojlanmay qolgan; majmag‘il, chala. *O‘simliklarning abortiv organlari.*

ABR [f. أبر – bulut] **1 esk. kt. ayn. bulut 1.** *Abr ichiga berkinib, motamsaro bo‘lsin quyosh.* E. Vohidov.

Abri balo Balo, ofat buluti. *Ayollar xonadonlari uzra yopirilib kelayotgan abri baloni erlaridan avvalroq sezadilar.* T. Malik, Shaytanat. **Abri navbahor** Erta bahorning yomg‘irli buluti. **Abri nayson** Bahorgi seryomg‘ir bulut. **Chun abri navbahor** Xuddi erta bahor bulutidek. *Zor-zor chun abri navbahor yig‘la b.* G‘. G‘ulom.

2 To‘qimachilik, me‘morchilik, kulolchilikda uchraydigan, tarxi bulutsimon amaliy bezak turi.

ABRAZIV [lot. abrasio – silliqlash, tarashlash, qirish] Abrazivlarga oid. *Abraziv asboblari.*

ABRAZIVLAR Metall, sopol, oyna, yog‘och va sh.k. ning yuzini silliqlash, jilolash, pardoqlash, shuningdek, asboblarni charxlash uchun ishlatiladigan mayda donador o‘ta qattiq moddalar.

ABRASH esk. Chavkar, xoldor ot. *Abrashini yeldurub yetgach yig‘ildim, do‘stlar.* Bobur.

ABRBAND [f. أبر + بند – bog‘, bog‘lam, tugun] **1** Atlas, shoyi tandasiga maxsus usulda gul (naqsh) solish. *Eski abrbandchi ustalar abrband texnikasini juda qadim zamonlardanoq bilganlar.* “Fan va turmush”.

2 ayn. abrbandchi.

ABRBANDI Atlas, shoyi tanda iplariga gul (naqsh) solish usuli. *Atlasdagi tanda ipi abrbanda usulida bo'yab bezatiladi.* Hordiq,

ABRBANDCHI Abrband ishlovchi. *Abrbandchi rassom ingichka cho'pni qorakuya aralashtirilgan suvda namlab, u bezakning yarmini tushiradi.* "Fan va turmush".

ABRISHIM [f. ابريشم – ipak] **1** esk. ayn. **ipak.**

2 Ipak gazlama, shoyi; shu gazlamadan tikilgan kiyim. *Uning egnida... rang-barang porlagan qizil abrishim to'n.* Oybek, Navoiy.

ABRO' [f. ابرو] esk. poet. Qosh.